

**KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TEJAMKORLIK
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH**

Namazbayeva Lola Zakirovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim texnologiyasi" kafedrasi p.f.f.d. (PhD) katta o'qituvchi v.b. dotsenti

Abdujalilova Gulsanam Sirojiddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Maktabgacha ta'lim" fakultetining 302-guruh talabasi

Annotatsiya: *Bola hayotining asosiy qismi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida otadi, bo'lajak tarbiyachilar bolalarga ta'lim-tarbiya beradi Bu jarayonlarda bolalarga tejamkorlik ya'ni iqtisodiy tarbiya berib boriladi. Bolaning yoshi ulgaygan sari, u o'zgalar mehnatini hurmat qilishni o'rganadi, shu sabali bolalarni tejamkorlik ehtiyyotkorlika o'rgatish maqasadga muvofiqdir.*

Kalit so'zlar: *tejamkorlik, ehtiyyotkorlik, iqtisodiy bilim, mehnatni qadrlash, mehnat qilishga orgatish.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОБ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОНЯТИЯХ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ВОЗРАСТА

Аннотация: *Основная часть жизни ребенка проходит в дошкольных образовательных учреждениях, образование детям дают будущие педагоги. По мере взросления ребенок учится уважать труд других, поэтому уместно учить детей бережливости.*

Ключевые слова: *бережливость, расчетливость, экономические знания, ценение труда, обучение труду.*

FORMATION OF CONCEPTS OF SAVING IN OLDER CHILDREN

Abstract: The main part of a child's life is spent in pre-school educational institutions, future teachers give education to children. As the child grows older, he learns to respect the work of others, so it is appropriate to teach children thrift.

Key words: *thrift, prudence, economic knowledge, valuing work, teaching to work.*

Hozirgi kunga kelib ta'lim sohasiga katta etibor berilmoqda. Shu jumladan Maktabgacha ta'lim sohasiga ham e'tibor qaratilmoqda buning asosiy sababi ta'lim sohasining birinchi bo'g'ini hisoblanadi. Nafaqat ta'lim tizimi balki tarbiyachi pedagoglarning ham bilim datajasi va malakasi tekshirilmoqda. Bu ishlar ta'lim sifatini tubdan isloh qilishga yordam beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir mashg'ulotni tashkil etish jaroyinida pedagoglardan bilim malaka va mahorat talab qilinadi. Turli guruhlarda turli, mashg'ulotlar o'tiladi shu jumladan katta guruhlarda mashg'ulotlar ozgina murakkabroq tashkil etiladi. Katta yoshdagi bolalarda tejamkorlik tushunchalarini rivojlantirishda avvalo bolalarga o'zgalarni mehnatini qadrlashni o'rgatish va bor narsalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kabi hislatlar bolalarga o'rgatiladi. Ayni damda tejamkorlik o'z o'rnida iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq. Maktabgacha ta'limda mezonlarga mos keladigan ko'rsatkichlarning mavjudligi bo'yicha iqtisodiy ta'lim darajasini: yuqori, o'rtalama, past darajada baholash mumkin. Hozirda ota – bobolarimiz orzu qilgan kun keldi va uning soyasida farzandlarimiz o'sayapti. Ya'ni, bugungi mustaqillik farzandlariga Mustaqil Vatan bag'rida tug'ilib, o'nib – o'sib, kamol topib bormoqlik amalga oshmoqda va farzandlarimizni chin ma'noda toza havodan nafas olish, musaffo osmon ostida yashash baxtiga muyassar bo'lganligini komil ishonch bilan ayta olamiz. Shuning bilan birga Davlatimiz tomonidan barkamol shaxs tarbiyasi asosida barkamol avlodni shakllantirish kabi ustivor vazifani uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'ymoqda. Buning amalga oshishida

dastlab yoshlar ongiga ma'naviyatli odam, madaniyatli kishi, milliy – ma'naviy qadriyatlar va shu kabi tushunchalar hamda ularning mazmun – mohiyatlarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab ular orqali yoshlar ongida ozod va obod Vatan, mustaqil davlatning o'ziga xos yo'li, o'z – o'zini anglash, intellektual salohiyatli barkamol shaxslarni tarbiyalashga erishish mumkin. Bolalarga iqtisodiy tarbiya berishni boshlashda ularga kam kop kabi tushunchalarni berib borishimiz zarur. Keyinchalik bolalarga pul birliklari, pulling turli ko'rinishlarda bo'lishini shu jumladan karta ,qimmatli qogozlar, cheklar holatida va tangalar korinishida bo'lishini o'rgatib borishimiz zarur. Tejamkorlika keladigan bolsak bolani orab turgan barcha narsalarni tejab ishlatishga va unimli foydalanishga o'rgatib borishimiz zarur. Bularga misol qilib uy jihozlari, o'yinchoqlar, o'quv qurollari va tabiiy resurslar bularga misol qilib suv, elektir toki, tabiiy gaz va hakazolarni keltirsh mumkin[1].

Iqtisodiy tarbiya (tejamkorlik). Iqtisodiy tarbiya ham shaxsning barkamol shakllanishining zarur shartidir. Yoshlarni iqtisodiy tarbiyalash pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi. Bozor iqtisodiga o'tayotgan bir sharoitda va keyingi rivojlanishda ham yoshlarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhimdir. Bu sohada hukumatimiz g'amho'rlik ko'rsatmoqda va pedagoglarimiz tadqiqotlar olib bormoqda[6].

Iqtisodiy tarbiya bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitilib, ilmiy asoslab kelingan. Bu borada Al-Xorazmiy matematika fani inson hayotida asosiy o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishi hisob ilmini bilishi va o'z ishiga puxta bo'lishi kerak. Shunda u o'z mehnatining (o'zgalarning ham) natijalarini o'lchovlar orqali aniqlay olishi mumkin. A.N. Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: "Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi". A.Avloniy "Iqtisod deb, pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakka aytilur" yana "Hozirgi zamonda maqsadga yetmoq, xalqqa maqbul

bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdir” kabi qimmatli g‘oyalarni olg‘a surgan. Masalan, uning quyidagi fikrlarini ko‘raylik: “Amerikaliklar bir dona bug‘doy ekib, yigirma qadoq bug‘doy olurlar, yevropaliklar o‘zimizdan olgan 5 tiyinlik paxtamizni o‘zimizga 25 tiyinga soturlar. Ammo biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar, dumba sotib, chandir chaynaymiz: qaymoq berub, non o‘rniga kesak tishlaymiz, so‘zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo‘lmak uchun ilm va ma’rifat ila barobar iqtisod, insof tugamas sa’i, bitmas g‘ayrat lozimdir”. Ahmad Yugnakiy “Hibbatul haqoyiq”da: “Mol-mulksiz kishi uchun bilim – bitmas-tuganmas mulkdir, kambag‘al uchun bilim hisob – xatosiz hisobdir”. Bu fikrdan shuni anglash zarurki, inson o‘zining ilmi bilan ijtimoiy hayotga tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘z hayotini oqilona tashkil qiladi. Ma’lumki, milliy tarbiyada milliy qahramonlari, Davlat arboblari, donishmandlarning turmush tarzi, ilohiy va muqaddas kitoblardagi inson tarbiyasiga oid (bola tarbiyasiga oid rivoyatlar, hikoyatlar, hikmatlar va shu kabilar) didaktik materiallar qimmatli manbaa bo’lib hisoblanadi[8]. Donishmandlarning ibratli turmush tarzi, hayotiy pand nasihatlari xalq pedagogikamizning asosini tashkil etadi. Ota – bobolarimizning har bir purmano fikri avloddan avlodga sayqallahib bizgacha yetib kelmoqda. Ular milliy tarbiyada muhim ma’naviy didaktik asos bo’la oladi. Quyida shunday o’gitlardan biri bo’lmish imorat qurishdagi fikrni va uning uzluksiz ta’lim tizimiga qiyosini keltiramiz. “Halqimizda devor qiyshiq bo’lsa, u qulaydi”, degan gap bor. Devorning qiyshiq bo’lishi esa, uning dastlabki terilayotgan g’ishtlarning qanday taxtlanishiga bog’liq. Maktabgacha ta’lim muassasi uzluksiz ta’lim tizimining birinchi turi, ya’ni dastlabki bosqichidir. Bugungi kunda Davlatimiz uzluksiz ta’lim tizimi oldiga ma’naviy yetuk va intelluktual salohiyatlari barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifani qo’ymoqda. Bu muhim vazifani bajarishning dastlabki bosqichi maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT)da amalga oshiriladi va unda ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirishga qaratiladi. Bunga davlatimiz tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Bu ta’lim olti – yetti yoshgacha oilada, bolalar bog’chasida va mulk shaklidan qat’iy nazar boshqa

ta'lismuassasalarida olib boriladi”, - deb alohida ta'kidlangan. Shuningdek, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham maktabgacha ta'lismuassasalarida tizimning birinchi turi ekanligi qayd etilib, unda maktabgacha ta'lismuassasalarida tarbiya jarayonini olib borishga qo'yilgan zamonaviy talablar aks ettirilgan. U talablarni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lismuassasalarida bolalarni sog'lom, ma'naviy jihatdan yetuk va barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga, o'qishga bo'lgan havaslarini o'yg'otishga, muntazam ravishda ta'lismuassasalarida amalga oshiriladi[9]. Mazkur o'quv qo'llanmada ham maktabgacha ta'lismuassasalaridagi bolalar ma'naviy tarbiyasida xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlari, boy ma'naviy merosidan foydalanish masalalari qaraladi va shu asosda ularga ajododlarimizdan bizgacha yetib kelgan intellektual mulkini asrab avaylash, muqaddas burch ekanligi bolalar ongu tafakkurini, dunyoqarashini va eng asosiysi ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishga asos solinishiga ham katta e'tibor berilmoqda. Ushbu o'quv qo'llanma “Oilada ma'naviy tarbiya asoslari” nomli o'quv qo'llanmaning bevosita davomi bo'lib, unda maktabgacha ta'lismuassasalarida bolalarga ma'naviy tarbiya berishning pedagogik asoslari qaraladi. Maktabgacha ta'lismuassasalarida pedagogik xodimlarining kasbiy tayyorgarligidan boshlab, “Ma'naviyat saboqlari” mashg'ulotlarini tashkil etishning ilmiy – metodik asoslarigacha to'liq tadqiq etildi[3].

“Ma'naviyat saboqlari” mashg'ulotlari bo'yicha ayrim mavzularning innovasion ishlanmalari, mavzularning namunaviy ro'yxatlari va ma'naviy ishlar bo'yicha amalga oshiriladigan rejalar hamda mazkur yo'nalishdagi mashg'ulotlarni olib borishga oid didaktik materiallar ham berilgan. Bu qayd etilganlar maktabgacha ta'lismuassasalarida tarbiyalanuvchining dunyoqarashini, ma'naviy qiyofasini va intellektual salohiyatini yuksaltirishga yordam beradi, degan umiddamiz. Maktabgacha ta'lismuassasalarida shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi[7].

O'rta daraja: bolalar iqtisodiy tushunchalar haqida g'oyalarga ega, lekin

ularni har doim tushuntira olmaydi; ularning oila ehtiyojlariga, ota-onalarning ishiga beqaror qiziqish bor; ularda mavjud bo'lgan bilimlar tiniq bo'lmay, noaniq, yuzaki; bolalar atrofdagi hodisalar haqida faqat tarbiyachi o'yin sharoitlari, mashqlar, ijodiy vazifalar orqali bilimga qiziqishni kuchaytirgandan so'nggina savollar berishadi, ular atrofdagi dunyo haqida yetarli g'oyralarga ega, ammo o'yinda mavjud bo'lgan bilimlardan qanday foydalanishni bilishmaydi; kattalar rahbarligi ostida o'z faoliyatini tashkil qilish, o'z vaqtida topshiriqlarni bajarish; sodiqlik bilan munosabatda bo'lish, ular kuchli, tashabbuskor, ishslashga ijodiy yondashishni bilishadi, lekin tayinlangan ishlar vijdonan, faqat kattalar rahbarligi ostida o'z vaqtida amalga oshiriladi; ular har doim faol emas, maqsadga erishishda qat'iyatlilikni qisman namoyon eta oladi[4].

Past darajadagi: bolalar iqtisodiy tushunchalarning ma'nosini tushuntira olmaydi, oila ehtiyojlariga qiziqish ko'rsatmaydi, ota-onalarning ishi, zamonaviy jamiyatning atrofidagi hodisalari, nutqda iqtisodiy so'zlarni ishlatmaydi; samarali faoliyatga qiziqish bildirmaydi, faqat tashqi kuzatuvchilar sifatida harakat qiladi; sodiqlik bilan munosabatda bo'lish, ular kuchli, tashabbuskor, ishslashga ijodiy yondashishni bilishadi, lekin tayinlangan ishlar vijdonan, faqat kattalar rahbarligi ostida o'z vaqtida amalga oshiriladi; ular har doim faol emas, maqsadga erishishda qat'iyatlilikni qisman namoyon eta oladi[5].

Mazkur iqtisodiy ta'lim darajasini 6-7 yoshdagi bolalarda aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: intervyular, shaxsiy suhbatlar, kuzatish. Ularga "Odamlarga pul nima uchun kerak?", "Reklama nima uchun qilinadi?", "Nega kitob, o'yinchoq, buyumlar, tabiatni muhofaza qilishimiz kerak?", "Do'konga borsang oilaga nimalarni sotib olish kerak?" kabi savollar bilan murojaat qilish orqali bolaning iqtisodiy tafakkurini aniqlash mumkin[2].

Xulosa qilib aytish mumkinki, bolaning kelajak hayotdagi faolligi, uning farovon va to'kin yashashi haqidagi tasavvurlari, bilim, malaka va ko'nikmalari kichik yoshdan shakllantirilib borilishi lozim. Ko'rsatkichi past darajadagi bola bilan yanada shug'ullanish zarur. Biz bolalarga ta'lim va tarbiya berishda juda ehtiyyotkorlik bilan ish olib borishimiz kerak buning sababi bola bu oq qog'oz biz

unga nimani yozsak shuni o'qiyimiz Shu boisdan bolalarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash bizning asosiy vazifamizdir .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Намазбаева, Л. (2022). BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH USULLARI VA TEXNOLOGIYALAR: Namazbayeva Lola, TN Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (5), 132-140.
2. Sultansaidova, M. (2023). BO'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISHDA METODIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH. Академические исследования в современной науке, 2(5), 107-109.
3. Namazbayeva, L. (2023). CONTENT FACTORS AND PRINCIPLES OF PREPARING FUTURE EDUCATORS FOR RESEARCH ACTIVITY. European International Journal of Pedagogics, 3(02), 19-30.
4. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish ". Ta'lim sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo'qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.
5. Artikbayeva, A. A. (2023). Development of Professional Competencies of Students Based on Social Cooperation. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 354-356
6. Намазбаева, Л. З. (2023). РОЛЬ ДЕТСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У ДЕТЕЙ И ИХ ПОНИМАНИЯ ОКРУЖАЮЩЕГО МИРА. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(2), 23-28.
7. Раджапова, З. Т. (2018). Развитие дизайнерских способностей учащихся на уроках прикладного искусства. In Исследование различных направлений современной науки (pp. 225-227).

8. Намазбаева, Л. З., & Латипова, Л. С. (2023). ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОМ РАКУРСЕ ВОСПРИЯТИЯ. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(4), 84-91.
9. Jumaniyazova, Z. R. (2023). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH KARAKALPAK FOLK GAMES. European International Journal of Pedagogics, 3(01), 9-15.